



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 9-iyun

N° 2138

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 70,79-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Sodikov Sardorbek Ulugbekovich – yozma arizasiga binoan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Axmedov Muzaffar Maxmudjanovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Jumaboyev Lutfulla Tolliboyevich yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov